

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31/01/.2024/Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

USMONOV BAXTIYOR BOTIROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TOJKISTON RESPUBLIKASI
O‘RTASIDAGI DAVLATLARARO MUNOSABATLAR
VA HAMKORLIK ALOQALARI**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 327(575.1+575.3)

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation
on Historical Sciences**

Usmonov Baxtiyor Botirovich

О‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo
munosabatlar va hamkorlik aloqalari..... 3

Усмонов Бахтиёр Ботирович

Межгосударственные отношения и сотрудничество Республики
Узбекистан и Республики Таджикистан.....29

Usmonov Baxtiyor Botirovich

Interstate relations and cooperation of the Republic of Uzbekistan and the
Republic of Tajikistan.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31/01/.2024/Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

USMONOV BAXTIYOR BOTIROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TOJKISTON RESPUBLIKASI
O‘RTASIDAGI DAVLATLARARO MUNOSABATLAR
VA HAMKORLIK ALOQALARI**

07.00.05 – Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1147 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuos.uz) va "Ziyonet" axborot - ta'lim portal (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Nuriddinov Erkin Zuxriddinovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Raximov Mirzoxid Akramovich
tarix fanlari doktori, professor

Bo'ronov Suxrob Mahammadi o'g'li
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "15" "01" soat "10⁰⁰" da majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi 20-uy. Tel.: (99871)233-45-21; faks:(99871) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy.mail.ru

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tashgiv.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" "01" kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" "_____" daqi ___ - raqamli reyester bayonnomasi).



M.M. Is'hoqov
ilmiy darajalar beruvchi kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

N.R. Karimov
ilmiy darajalar beruvchi kengash
ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

S.B. Shadmanova
ilmiy darajalar beruvchi kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan globalashuv jarayonlari mamlakatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro yaqinlashish zaruriyatini tug'dirmoqda. Zotan, xalqaro konvensiyalar va hujjatlarda davlatlar va xalqlarni o'zaro yaqinlashtirish, ular o'rtasidagi integratsion jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan tashqi siyosatda davlatlar o'zaro teng huquqli, manfaatli davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirishga, davlatlararo munosabatlarni teng huquqli asosda yo'lga qo'yish, ko'p vektorli hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar mazkur tarixiy tajribalarni o'rganish va amaliy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy dunyodagi geosiyosiy o'rni, mintqa mamlakatlari o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutayotgan masalalar dunyoning ko'plab ilmiy tahlil markazlarning tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Ko'plab strategik va mintaqalararo tadqiqotlar markazlarining asosiy e'tibori mintqa davlatlarining xalqaro munosabatlar zamonaviy tizimining shakllanish jarayonidagi ishtirokini o'rganishga qaratilgan. Davlatlararo munosabatlar va hamkorlik aloqalariga oid bir qator loyihalar – chegara muammolarini hal qilish; Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish, iqtisodiy hamkorlik, madaniy va ilmiy almashuv dasturlari; tinchlik va xavfsizlik bo'yicha hamkorlik; energetika va infratuzilmani rivojlantirish doirasida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu tadqiqotlarni mahalliy ilmiy natijalar bilan boyitish va muammoga oid ma'lumotlarni yanada aniqlashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning xalqaro munosabatlardagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga nisbatan yuqori darajadagi ehtiyoj tufayli O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik masalalari, o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va ularni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish jahon siyosati va mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan dolzarb tadqiqot obyektlaridan biriga aylanmoqda. "O'zbekistonning taqdiri – bu Tojikistonning taqdiridir. Tojik xalqining kelajagi – bu o'zbek xalqining kelajagidir"¹ tamoyili doirasida davlatlararo munosabatlarni chuqur tadqiq qilish va hamkorlikni rivojlantirishda ikki davlat hamkorligini tarixiylik nuqtayi nazaridan tadqiq etish bugungi kundagi tarix fanining dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2018. – B.345.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2024-yil 30-avgustdagi PF-133-sonli “Ma‘muriy islohotlar doirasida Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni² hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ham mahalliy, ham xorijiy tarixnavislikdagi mavjud o‘rganilgan tadqiqot ishlardan kelib chiqib, ularni quyidagi guruhlariga bo‘lish maqsadga muvofiq: 1) o‘zbek olimlarining fundamental asarlari va dissertatsiyalari; 2) xorijiy mualliflarning asarlari va ilmiy tadqiqotlari.

Birinchi guruhga O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilgan monografik asarlar va ilmiy maqolalar mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyati asoslari, uning xalqaro maydondagi o‘rni va xorijiy davlatlar bilan davlatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yilishi, hamkorlikning ko‘p tomonlama shakllarini rivojlantirish jarayonlari A.Qosimov, L.Petrov, I.Vaskin, R.Hakimovlar³ tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, R.Alimov, R.Farmonov, M.Farmonova, Q.Jo‘rayev, F.Tolipov, N.Qosimova, S.Jo‘rayev, B.G‘iyosovlarning⁴ tadqiqotlarida davlatchiligimizning huquqiy asoslarini va O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi masalalari, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqaro munosabatlar va geosiyosiy o‘zgarishlar ochib berilgan.

“Journal Himalayan and Central Asian Studies” jurnalining 2024-yilgi sonida O.Abduraxmonov, M.Raximov, F.Qobilov, A.Umarovlarning maqolalari e‘tiborga molik⁵. Temur Dadaboevning “Decolonizing Central Asian International Relations” nomli asarida Markaziy Osiyodagi davlatlararo munosabatlarni

² <https://lex.uz/docs/-3107036>, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>, <https://lex.uz/docs/-3611072>

³ Qarang: Касымов А., Петров Л. Внешняя политика Узбекистана в свете концепции ненасилия. – Тошкент, 1992; Касымов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Тошкент: Узбекистан, 1994. – 112 с.; Норов В. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсатининг устувор жihatлари // Ўзбекистонда ижтимоий fanlar, 1996. №11-12. – Б. 3-9.; Хакимов Р. Международно-правовые вопросы признания и правоприметства Республики Узбекистан – Тошкент: 1996. – 26 с.; O‘sha muallif. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. 3-е изд., доп. – Тошкент: Zar Qalam, 2006. – 320 с.

⁴Qarang: Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарк, 2005. – 464 с.; Фармонов Р., Жураев К. Халқаро муносабатлар тарихи. – Тошкент: ЖИДУ, 2013. – 153 б.; История международных отношений Республики Узбекистан: коллективная монография / Отв. ред.: Фармонов Р. – Ташкент: УМЭД, 2017. – 260 с.; Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2005. – 153 с.; Касымова Н., Жураев С.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Тошкент: Академия, 2008. – 320 с.; Касымова Н., Гиясов Б. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Тошкент: 2009. – 234 с.

⁵ Qarang: M.Rakhimov (eds). Journal Himalayan and Central Asian Studies. Himalayan and Central Asian Studies. Vol. 28, Nos. 1-2, January -June 2024. – Himolay va Markaziy Osiyo tadqiqotlari 1997-yildan beri muntazam chop etiladi 2024-yilning 1-2-sonlarida M.Rahimov tahriri ostida asosan Markaziy Osiyo mualliflari maqolalari chop etilgan. <https://www.himalayanresearch.org/journal-2024.php> (Murojaat etilgan sana: 20.07.2024).

tavsiflashda xalqaro munosabatlarda qo‘llaniladigan asosiy faktorlar haqida so‘z boradi⁶.

E.Nuriddinov⁷, A.Kirg‘izboyev⁸, M.Raximov⁹, M.Boboxo‘jaye¹⁰, L.Boboxo‘jaye¹¹, G.Karimova¹², S.Sharipova¹³, D.Sayfullayev¹⁴, A.Xolliyev¹⁵, D.Mirshayev¹⁶, A.Sultanov¹⁷, K.Matxalikov¹⁸, N.G‘ofurov¹⁹, I.Azizov²⁰ kabi olimlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va xalqaro hamkorlik masalalariga doir ko‘plab monografiyalar va dissertatsion tadqiqotlar yaratilgan.

⁶ Qarang: Dadaboyev T. Decolonizing Central Asian International Relations. Routledge. 2023; -Izoh-1: Mazkur asarni <https://www.routledge.com/Decolonizing-Central-Asian-International-Relations-Beyond-Empires/Dadabaev/p/book/9781032009384> web saytidan onlayn xarid qilish mumkin. Murojaat etilgan sana: 20.07.2024.

⁷ Qarang: Нуриддинов Э.З. Международное сотрудничество Узбекистана со странами Европы в условиях независимости: становление, развитие, проблемы.: Дис. ... докт. истор. наук. – Тошкент., 2000. – С. 305.; O‘sha muallif. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Тошкент: Чулпон, 2002. – 216 с.; O‘sha muallif. Республика Узбекистан – Япония: грани сотрудничества. – Ташкент 2017. ТГПУ им. Низами. – 154 с. O‘sha muallif. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 395 с.

⁸ Qarang: Киргизбаев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. Тарих фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004.; O‘sha muallif. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан. 2004. – 280 б.

⁹ Рахимов М. Сотрудничество Узбекистана с зарубежными странами и международными организациями в обеспечении стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии (1991 – 2010 годы): Автореф. дис. докт. истор. наук. – Тошкент., 2012. – 47 с.; O‘sha muallif. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения и устойчивого развития в Центральной Азии. – Тошкент: Yangi nashr. 2011. – 232 с.; O‘sha muallif. Современная история взаимоотношений Узбекистана и стран Центральной Азии с ведущими государствами мира. – Ташкент, 2016. – 224 с.

¹⁰ Qarang: Бабаходжаев М. Республика Узбекистан: очерки межнациональных межконфессиональных отношений, внешнеэкономических связей. – Т.: ТГИВ, 1996. – 78 с.; Бабаходжаев М. Суверенный Узбекистан. Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики. – Тошкент: ТГИВ, 2004. – 336 с.

¹¹ Qarang: Бабаходжаева Л. Основные тенденции и направления международного культурно-гуманитарного сотрудничества Республики Узбекистан (период независимости): Автореф. дис. докт. истор. наук. – Т., 2011. – 49 с.; Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан (период независимости). 2-е изд., перераб. и доп. – Ташкент: Фан, 2011. – 218 с.

¹² Qarang: Каримова Г.И. Политико-экономический аспект интеграции Узбекистана в мировое сообщество: Автореф. дис... канд. полит. наук. – Тошкент: 1996. – 29 с.

¹³ Qarang: Шаропова С.Ш. Основные проблемы становления и развития внешней политики Республики Узбекистан: Автореф. дис... канд. полит. наук. – Тошкент: 1997. – 21 с.; Шаропова С.Ш. Многосторонняя дипломатия Республики Узбекистан: Участие в универсальных, региональных и субрегиональных организациях межгосударственных объединениях: Автореф. докт... полит... наук. – Тошкент: АГОСПРУЗ, 2006. – 50 с.

¹⁴ Qarang: Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданият дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи(1991-2019). –Тошкент: Фан ва технологиялар, 2020. –250 б.

¹⁵ Холлиев А.Г. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана с Великобританией и США.: Автореф. дисс... канд. ист. наук – Тошкент: НУУз. им. М. Улугбека 1998. – 30 с.

¹⁶ Мишарев Д. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана с Германией: Автореф. дисс.... канд. ист. наук. – Тошкент: НУУз им. М.Улугбека, 2004. – 28 с.

¹⁷ Султанов А.В. История сотрудничества Узбекистана со странами Европы в гуманитарной сфере. 1991-2001 гг. (на примере Австрии, Германии, Швейцарии): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Тошкент: НУУз им. М.Улугбека, 2005. – 27 с.

¹⁸ Матхаликов К.А. Ўзбекистон Республикаси ва Европанинг франкофон давлатлари ўртасидаги маданият алоқалар тарихи (Франция, Швейцария ва Бельгия мисолида (1991-2005 йй)): Тарих фан номзоди... дисс. Автореф. – Тошкент: УзМУ. 2008. – 30 б.

¹⁹ Гофуров Н.О. Ўзбекистон Республикасининг Хитой Халқ Республикаси билан иқтисодий, илмий ва маданият соҳалардаги ҳамкорлиги (1991 – 2001 йиллар): Тарих фан. ном.... дисс. автореф. – Тошкент: УзМУ. 2011. – 29 б.

²⁰ Азизов И. Взаимодействие Республики Узбекистан с организацией по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ) в решении актуальных задач страны (1991-2017 гг.). Автореф. дис... доктора философии (PhD) по ист. наукам. – Тошкент: УзМУ, 2019. – 52 с.

Adabiyotlarning ikkinchi guruhini xorijiy mualliflarning tadqiqot ishlari tashkil qiladi. Ayni paytda ularni uch yo‘nalishga ajratish mumkin bo‘lib, birinchi yo‘nalishga tojikistonlik olimlarning, ikkinchisiga rossiyalik olimlarning va uchinchisiga esa uzoq xorij olimlarining ishlarini kiritish mumkin.

Birinchi yo‘nalishga oid ishlardan D.Nazriyev²¹, A.N.Sharipov²², S.Fattoyev²³, X.Zarifi²⁴ va boshqalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularda Tojikistonning mustaqil taraqqiyot bosqichlari, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar masalalari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, bir qator dissertatsiyalar Tojikiston tashqi siyosati masalalarini yoritishga bag‘ishlangan. D.Nasretdinov²⁵, P.Djumayev²⁶, X.Mirzoyev²⁷, S.Solixodjayeva²⁸, F.Todjiyev²⁹, X.Komilova³⁰ lar shular jumlasidandir. Ularda xorijiy davlatlar bilan xalqaro munosabatlar va hamkorlikning alohida aspektlari ochib berilgan.

Ikkinchi yo‘nalish rossiyalik olimlarning tadqiqot ishlarida Markaziy Osiyo davlatlari, shuningdek, ularning dunyo taraqqiyotining zamonaviy jarayonida mustaqil ishtirok etishi o‘z isbotini topgan³¹. Masalan, S.Jukov, V.Kolesnikov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda geosiyosiy mavqega ega davlat sifatida ustuvor o‘rni, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog‘liq integratsiya jarayonlaridagi yetakchi mavqeyi ta’kidlangan. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti olimlari tomonidan tayyorlangan “Markaziy Osiyo: jahon hamjamiyati yo‘lida”³² jamoaviy monografiyasi bevosita mavzuga aloqador. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlashda O‘zbekistonning geosiyosiy

²¹ Qarang: Назриев Д., Саттаров И. Республика Таджикистан: история независимости. Год 1992-й. Душанбе, 2005.

²² Qarang: Шарипов А.Н. Из истории таджикско-казахстанских взаимоотношений (1991-2006 гг.). Душанбе, ЭР-Граф, 2012.

²³ Qarang: Шарипов А. Фаттоев С. Эмомали Рахмон – тинчлик ва миллий ҳамжиҳатлик асосчиси (тожик тилида). – Душанбе. 2006.

²⁴ Qarang: Дипломатия Таджикистана: вчера и сегодня. В двух томах. Том 1. (Под общей редакцией Хамрохона Зарифи) Серия: Внешняя политика Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 2009.

²⁵ Qarang: Насретдинов Д.И. Внешняя политика Республики Таджикистан в контексте проблем региональной безопасности Центральной Азии (1991 – 2011 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук – Москва – 2013. – 31 с.;

²⁶ Джумаев П.А. Политические и научно-культурные отношения Республики Таджикистан и Исламской Республики Пакистан (1992-2019 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук – Душанбе – 2021. – 26 с.

²⁷ Мирзоев Х.Т. Научно-культурное сотрудничество Республики Таджикистан и Китайской Народной Республики в период независимости (1991-2020 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук – Душанбе – 2021. – 25 с.

²⁸ Солиходжаева С.А. Историография внешней политики Республики Таджикистан (1991-2016 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук – Худжанд, 2019, –26 с.

²⁹ Тоджев Ф.Н. Эмомали Рахмон – основатель и руководитель внешней политики Республики Таджикистан (1992-2018 гг.): Диссерт. канд. ист. наук – Душанбе, 2019. – 178 с.

³⁰ Комилова Х.Г. Республика Таджикистан в системе международных отношений и геополитических координат в условиях нового мирового порядка (региональный формат): Диссер. докт. ист. наук – Душанбе, 2021. – 373 с.

³¹ Qarang: Жуков С., Резникова О. Центральная Азия в мировой политике и экономике // США: ЭПИ. 1994. № 12; Жуков С. Казахстан, Киргизстан, Узбекистан в социально-экономических структурах современного мира // Мировая экономика и международные отношения. 1997. № 3. С 45-60; Виноградова Л. Экономическая интеграция в СНГ и опыт третьего мира // Мировая экономика и международные отношения. 1995. № 9; Колесников В. Узбекская модель развития // Эксперт Евразии. – М.: 2001. Август.

³² Qarang: Центральная Азия: по пути в мировое сообщество. – М.: Институт Востоковедения РАН. 1995. – С. 178.

roliga alohida e'tibor qaratilib, har bir davlat tashqi siyosatining o'ziga xos tendensiyasi ochib berilgan.

Ilmiy tadqiqotlarning uchinchi yo'nalishi xorijiy davlatlar vakillarining zamonaviy xalqaro munosabatlar muammolariga, shuningdek, yangi mustaqil davlatlarning ichki va tashqi siyosatining ayrim masalalariga bag'ishlangan asarlari bilan namoyon bo'ladi. Ularning orasida o'z ishlarini zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar, buyuk davlatlarning tashqi siyosiy pozitsiyasi bashoratlari, shuningdek, shiddat bilan o'zgarayotgan rivojlanayotgan davlatlarning holatini tahlil qilgan S.Xantington, Z.Bjezinskiy, G.Kissindjerlarning³³ asarlari va tadqiqotlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Yang Chengning "The Emerging Regional Configuration in Central Asia: the Remaining Traces of Unipolarity"³⁴ nomli maqolasida mintaqadagi jarayonlarning murakkabligiga to'xtalib o'tib, Rossiyaning an'anaviy gegemonligi masalasini, Xitoyning mintaqa siyosatidagi yuksalishini va mintaqadagi AQShning ta'sirini chuqur tahlil qilgan.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayoti, shuningdek, tashqi dunyo bilan manfaatli aloqalarni rivojlantirishda davlatlarning roli va salohiyatini anglashning ayrim masalalari Richard Veytz, Frederik Start, Marlen Laruel, Sebastyan Peyrouslarning³⁵ asarlarida o'z aksini topgan. Ularning ishlarida O'zbekistonning dunyo hamjamiyati davlatlari bilan o'zaro hamkorlik haqidagi alohida masalalar ochib berilgan. Shuning bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishlab chiqilgan milliy qonunchilik bazasining iqtisodiyotni izchil rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish kafolatlarini yaratishdagi ahamiyatiga yuqori baho beriladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish hozirgi kunda zamonaviy mamlakat tarixshunosligida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatining alohida mamlakatlari bilan ham, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham tashqi siyosati va xalqaro hamkorligi bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Lekin shunga qaramay, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalarining davlatlararo munosabatlar va hamkorlik masalalari mustaqil fundamental tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

³³ Qarang: Samuel P. Huntington. The clash of Civilization? // Foreign Affairs, Summer.1993. – p. 22-49.; Бжезинский З. Вне контроля. Глобальный беспорядок накануне XXI в. // США; Экономика. Политика. Идеология.– 1994. – № 4. – С. 112-121.; O'sha muallif. Великая шахматная доска: господство Америки и его геостратегические императивы. – Москва: Издательство АСТ, 2015. – С. 702. Киссинджер Г. Рецепт хаоса // США: – ЭПИ. – 1994. – № 1. – С. 77-79. va boshqalar.

³⁴ Yang Cheng. The Emerging Regional Configuration in Central Asia: the Remaining Traces of Unipolarity <https://ru.ecnu.edu.cn/EN/abstract/abstract175.shtml#> ., / Murojaat etilgan sana: 20.07.2024.

³⁵ Qarang: Richard Weitz. Uzbekistan's New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership. Washington D.C. 2018; S. Frederick Star. In Defense of Greater Central Asia. Washington D.C. September 2008; Constructing the Uzbek State Narratives of Post-Soviet Years. Edited by Marlene Laruelle. New York-London. 2017; Globalizing Central Asia: geopolitics and the challenges of economic development / by Marlene Laruelle and Sebastien Peyrouse. Printed in the United States of America.2013. va boshqalar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Amalga oshirilgan dissertatsiya tadqiqoti "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish, tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish. Mamlakatimizning xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, o'zaro ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish" mavzusi doirasida Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi tarixiy nuqtayi nazardan, diplomatik munosabatlar o'rnatilgan davrdan bugungi kunga qadar O'zbekiston va Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlikning holati va rivojlanishi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Davlatlararo munosabatlarni amalga oshirish uchun ikki mamlakat tashqi siyosiy faoliyati asoslarining shakllanish jarayonini tadqiq qilish;

O'zaro diplomatik munosabatlar va davlatlararo hamkorlik asoslarini yoritib berish;

O'zbekiston va Tojikistonning transport-kommunikatsiya sohasidagi muammolari va ularning yechimlarini asoslab berish;

Ikki davlatning savdo-iqtisodiy va investitsion sohalardagi hamkorlik aloqalarining holatini ochib berish;

O'zbekiston va Tojikistonning barqaror rivojlanish va xavfsizlik sohasidagi o'zaro aloqalarini yoritib berish;

O'zbekiston va Tojikiston xalqlarining ilm-fan, ta'lim, madaniyat va turizm sohalaridagi hamkorligining – xalq diplomatiyasi ko'rinishida o'zaro munosabatlarning yanada rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini yoritib berish;

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yakuniy xulosalar va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlikning shakllanishi va rivojlanishi masalalari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi va davlatlararo huquqiy asoslarning shakllanishi, shuningdek, ikki davlatning xavfsizligini ta'minlash va barqaror rivojlanishi, o'zaro savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalardagi hamkorligiga samarali va ijobiy ta'sir o'tkazuvchi omillar to'g'risidagi konsepsiyalar, qarashlar, fikrlar va ilmiy farazlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari zamonaviy xalqaro munosabatlarda ro'y berayotgan jarayonlarni xolis o'rganish, umumlashtirish, obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez shuningdek, muammoli xronologik yondashuv tamoyillariga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va davlatlararo munosabatlar ikki davrga – ya'ni 1992-2016 yillarda Tojikistondagi beqaror ichki siyosiy vaziyat va ikki davlat o'rtasidagi hal etilmagan va o'z yechimini topmagan masalalar bilan bog'liq

davr va 2017-2024-yillarda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar faollashgan va strategik sheriklik hamda ittifoqchilik darajasidagi hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan davrlarga bo'linishi asoslangan;

uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy sheriklikning yangi modeli asosida ikki davlat o'rtasida "yagona mintaqaviy bozorni" shakllantirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion usullarini joriy etish – strategik maqsad bo'lishi kerakligi va iqtisodiy munosabatlarning ijobiy dinamikasi eng avvalo xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarziga ijobiy tasir ko'rsatishi asoslab berilgan;

O'zbekiston tashqi siyosat vektorida Tojikiston bilan munosabatlarning tez normallasuvi fonida, "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi doirasida milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash prizmasi o'zgarib ikki mamlakatning yadro qurolidan holi hududni yaratish, xavfsizlik, tinchlik, barqaror rivojlanishni ta'minlash, diniy ekstremizm, terrorizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi hamkorlikni kuchaytirishi natijasida mamlakatlar o'z tashqi siyosatida bu boradagi asosiy konstantalarini qayta ko'rib chiqqanligi asoslangan;

xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar xalq diplomatiyasi rolini o'tab davlatlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi, xususan, O'zbekiston-Tojikiston o'rtasidagi o'tkazilgan xalqaro media platformalar, ta'lim forumlari, qolaversa turizm sektori hamkorlikning yangi drayveriga aylanib "Bitta tur – butun mintaqqa" tamoyili bo'yicha milliy, madaniy-tarixiy merosning umumiyligini hisobga olgan holda, xalqlarimizning mintaqqa kelajagi uchun daxldorligi, birdamligi, yagona o'tmish va umumiy kelajak nuqtayi nazaridan strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasidagi hamkorlik doirasida ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlanishiga xizmat qilayotganligi aniq hayotiy misollar bilan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning o'rnatilish tarixini o'rganish va huquqiy asoslarini shakllantirish, o'zaro iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalardagi ikki tomonlama manfaatli hamkorlik uchun sharoitlar yaratish, yaqin qo'shnilarimiz bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi (xususan, Tojikiston Respublikasi bilan) o'zaro munosabatlarning yorqin manzarasini yaratish jarayonlari tadqiq qilingan;

Bugungi kun Tojikiston tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish jarayoning tarixi uch bosqichni 1992-2002 – yillar; 2002-2014 yillar; 2015-2024 – yillarni tashkil etishi, bu jarayonlar o'zaro hamkorlik va davlatlararo munosabatlarda ham o'z aksini topganligi ilmiy tahlil qilingan;

ayrim masalalar bo'yicha ikki davlatning qarashlarida farqli jihatlari bo'lishiga qaramay, hamkorlikning rivojlanishi chuqurlashib borayotganligi, xalqaro munosabaatlarda va tashqi siyosatda xalqaro masalalariga yondashuv bir xil pozitsiyada turganligi ochib berilgan;

davlatlararo o‘zaro munosabatlar va barqaror hamkorlikning zamonaviy shakllarini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida belgilangan vazifani hal qilish va muammoni tadqiq etishda turli birlamchi manbalardan olingan keng qamrovli materiallar va hujjatlar ilk marta o‘rganilib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

Manbalarning maxsus guruhini vazirlik va idoralarning joriy arxivlari, shuningdek, ularning internet sahifalarida mavjud bo‘lgan materiallar tashkil etadi. Bularning barchasi birgalikda O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik haqida ma’lumot olish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari o‘rtasidagi davlatlararo munosabat va hamkorlikni o‘rganish natijasida olingan ma’lumot va xulosalar O‘zbekistonning yangi tarixini o‘rganishda nazariy va uslubiy yondashuvlarni to‘ldirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan ham belgilanadiki, tadqiqot natijalari asosida davlatlararo munosabatlar tarixi, tashqi siyosat va diplomatiya bo‘yicha maxsus kurslar ishlab chiqilishi, yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqot doirasida olingan analitik xulosa va tavsiyalardan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta’lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassisleri uchun tahliliy materiallar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik aloqalari” mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan xulosa va takliflar asosida:

Ikki davlat o‘rtasida 1992-yilda diplomatik aloqalar o‘rnatilganiga qaramay, davlatlararo munosabatlar va hamkorlik, Tojikistonda fuqarolar urushi yakunlanganidan keyin rivojlanganligi, asosiy hal qiluvchi hujjatlar yaqin qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi “Do‘stlik” shartnomasi (1993-yil), “Abadiy do‘stlik” to‘g‘risidagi shartnoma (2000-yil), strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma (2018-yil), ittifoqchilik shartnomalari ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 28-maydagi 14-07-884-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, olingan ma’lumotlar asosida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va davlatlararo hamkorlikning ikki davri – 1992-2016-yillar; – 2017-2024-yillardagi munosabatlarning farqli jihatlari aniqlangan va mavzu doirasida yaxlit ilmiy asos yaratilgan bo‘lib, mazkur ma’lumotlar davlatlararo do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash yuzasidan ilmiy statistik va analitik materiallar tayyorlashda foydalanilgan.

“O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqqimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda mamlakatimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi siyosat va xalqaro hamkorligi bo‘yicha, jumladan Tojikiston bilan davlatlararo munosabatlar va hamkorlik masalalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilgan. Dasturda uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy sheriklikning yangi

modeli asosida ikki davlat o'rtasida "yagona mintaqaviy bozorni" shakllantirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion usullarini joriy etish to'g'risida fikr va mulohazalar berilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasini 2024-yil 7-may 06-31-617-sonli ma'lumotnomasi). Natijada iqtisodiy munosabatlarning ijobiy dinamikasi eng avvalo xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, bu bizning strategik maqsadimiz bo'lishi lozimligi xususidagi ilmiy asos yaratilgan;

Diplomatik munosabatlar va hamkorlik tarixi Tojikiston tashqi siyosiy faoliyatining shakllanish bosqichlariga uzviy bog'liq bo'lib kelgan. "O'zbekiston" telekanalida efirga uzatilgan "Rangin kamon" ko'rsatuvida mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro davlatlararo munosabatlar va hamkorlik aloqalari bo'yicha turli jarayonlarga oid masalalar tarixiylik jihatidan tahlil qilingan. Jumladan, "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi doirasida milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari tahlil qilindi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 27-oktabr 02-31-1611 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ikki davlatning milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash prizmasi to'g'risida yaxlit ilmiy asoslangan ma'lumotlar bazasi yaratilgan;

xalqaro munosabatlarda madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar xalq diplomatiyasi rolini o'tab davlatlararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi, xususan O'zbekiston-Tojikiston o'rtasidagi o'tkazilgan xalqaro media platformalar, ta'lim forumlari, qolaversa turizm sektori hamkorlikning yangi drayveriga aylanib "Bitta tur – butun mintaqqa" tamoyili bo'yicha milliy, madaniy-tarixiy merosning umumiylikini hisobga olgan holda, xalqlarimizning mintaqqa kelajagi uchun daxldorligi, birdamligi, yagona o'tmish va umumiy kelajak nuqtayi nazaridan strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasidagi hamkorlik doirasida ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlanishiga xizmat qilayotganligi to'g'risida hayotiy misollar berilgan. Natijada, mazkur tadqiqot materiallaridan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va marifat markazining 2022-2023-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va marifat markazining 2023-yil 24-oktabrdagi 397-sonli dalolatnomasi), hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqining ustuvor yo'l xaritalari, dasturlari, targ'ibot tadbirlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi markaziy kengashining 2023-yil 6-dekabrda 04-13/1063-sonli dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta Respublika darajasidagi ilmiy–anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy

nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (Respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning sharhlari va muammoni bilish darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, shuningdek, tadqiqot ishining muvofiqligi batafsil tavsiflangan. Shuningdek, fan va texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishlari, tadqiqotning ilmiy yangiligi to'g'risidagi ma'lumotlar, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga tatbiq etish, e'lon qilingan nashrlar va ishning tuzilishi berilgan.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekiston-Tojikiston davlatlararo munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo'lib, ulardan birinchisi **“Davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishdagi tashqi siyosiy faoliyat asoslarining shakllanishi”** deb nomlangan bo'lib, XX asrning so'nggi o'n yilida xalqaro munosabatlarning zamonaviy tizimining shakllanishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqilgan. Jahondagi sotsialistik tizimning qulashi va davomli geosiyosiy o'zgarishlar fonida xalqaro munosabatlarning yangi ishtirokchilari paydo bo'ldi. Bu ulkan sobiq sovet hududida tashkil topgan yangi mustaqil davlatlar uchun ham istisno emas edi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi kabi davlatlari ham bundan mustasno emas.

O'zbekiston va Tojikiston siyosiy mustaqillikka erishib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olingach, tashqi siyosiy faoliyat asoslarini belgilashga kirishdilar. Biroq, bu jarayon ularning har biri uchun teng bo'lmagan siyosiy sharoitlarda sodir bo'ldi. Gap shundaki, agar O'zbekistonda mamlakatning strategik yo'nalishini belgilash uchun qulay bo'lgan barqaror siyosiy vaziyat hukm surgan bo'lsa, Tojikistonda bu jarayon biroz cho'zildi, sababi mamlakatdagi beqaror siyosiy vaziyat birinchi navbatda, fuqarolar urushi bilan bog'liq edi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston rahbariyati BMT va YXHT nizomlarida belgilangan xalqaro munosabatlarning me'yor va tamoyillariga asoslanib, mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining o'ziga xos strategiyasi, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqdi. Shu bilan birga, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish bilan birgalikda Markaziy Osiyo mintaqasini o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy madaniy almashinuvni kengaytirish zaruriyati yuzaga keldi. Ayni shu fikrni Tojikiston Respublikasiga nisbatan ham ta'kidlashimiz mumkin. Tojikiston ham

mamlakatning tashqi siyosatining ustivor ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo mintaqasiga katta e‘tibor qaratmoqda.

Xalqaro munosabatlarda ishtirok etish strategiyasini belgilash va tashqi siyosatning asosiy tamoyillari va ustivor yo‘nalishlarini ishlab chiqish bilan bir qatorda, mamlakatimiz tashqi siyosati faoliyatining huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Bu borada bir qator muhim qonunlar, O‘zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari qabul qilindiki³⁶, bu hujjalar jahon hamjamiyatining to‘la huquqli subyekti sifatida xalqaro munosabatlarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qila boshladi. 2012-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi muhim qonun³⁷ mamlakatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlarga mos ravishda tashqi siyosiy faoliyatning kelgusidagi asosiy vazifalarini belgilab berdi.

Keyinchalik, yangilanish va yangi O‘zbekiston qurilishi sharoitida respublikaning yangi rahbariyati tomonidan jahon hamjamiyatining subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha aniq qadamlar qo‘yildi. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi³⁸, 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi³⁹ va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi⁴⁰ni a‘lohida ta’kidlash mumkin. Qolaversa, ushbu hujjatlarda mamlakat tashqi siyosatining Markaziy Osiyo vektoriga alohida e‘tibor qaratilganini alohida ta’kidlash lozim. Ular Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yaqin qo‘shnilariga nisbatan yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish, ular bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada faollashtirish, shuningdek, afg‘on muammosini hal etish bo‘yicha global sa‘yi-harakatlarni ilgari surish va boshqalar zarurligini belgilab beradi.

³⁶ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 03.07.1992 йилдаги 649-XII-сон “Ўзбекистон Республикасининг чет давлатлардаги дипломатия ваколатхоналари бошлиқларини тайинлаш ҳамда чақириб олиш тартиби тўғрисида” Қонуни. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси; Ўзбекистон Республикасининг 03.07.1992 йилдаги 650-XII-сон “Ўзбекистон Республикасининг дипломатия ходимлари учун дипломатия даража ва мартабалари белгилаш тўғрисида” Қонуни. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси; Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолиятни рағбатлантириш, чет эл инвестицияларини жалб этиш ва уларни ҳимоя қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – Т.: 1992 № 9. – Б. 238-240.; Ўзбекистон Республикасининг 22.12.1995 йилдаги 172-I-сон “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида” Қонуни. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси; Ўзбекистон Республикасининг 29.08.1996 йилдаги 261-I-сон “Ўзбекистон Республикасининг консуллик уставини тасдиқлаш тўғрисида” Қонуни. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси; Ўзбекистон Республикасининг 26.12.1996 йилдаги 336-I-сон “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида” Қонуни, - Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1997 й., № 2, –Б. 35., ва бошқалар.

³⁷ Ўзбекистон Республикасининг Ташқи сиёсий фаолиятни концепцияси. – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари Ахборотномаси. 2012. № 9/1 (1437).

³⁸ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi. 2017 yil 8 fevral.

³⁹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi. 2022 yil 1 fevral.

⁴⁰ Qarang: “O‘zbekiston 2030” strategiyasi to‘g‘risida 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413#6605105>. Murojaat sanasi 22.09.22

Tojikiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin mamlakat tashqi siyosiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish uch bosqichda amalga oshirildi.

Tojikiston tashqi siyosiy faoliyati shakllanishining birinchi bosqichi avval mavjud bo'lgan barqaror iqtisodiy aloqalarning uzilishi, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va boshlanib ketgan fuqarolar urushi bilan bog'liq qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga (MDH) a'zo sakkiz davlatlar qatorida 1992-yilning 2-martda mamlakatning Birlashgan millatlar tashkilotiga (BMT) qabul qilinishi Tojikiston tashqi siyosatining ulkan yutuqlaridan biri bo'ldi⁴¹. Yana bir muhim qadam, Tojikiston Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) to'liq ishtirokchisiga aylangani bo'lgan edi(2002-yil)⁴².

Tojikiston davlati rahbari Emomali Rahmon 1992-yil 12-dekabrda Tojikiston xalqiga qilgan murojaatida tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Shuningdek, Tojikiston tashqi siyosatining muvaffaqiyatli shakllanishiga hissa qo'shgan bir qator asosiy hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin: 1995-yil 23-mayda qabul qilingan Tojikiston elchixonasi to'g'risidagi Nizom va shu sanada akkreditatsiya qilingan Tojikiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisining huquq va majburiyatlari to'g'risida Nizom; 1997 yil 4-iyuldagi "Sovg'a amaliyoti to'g'risida yagona protokol" haqidagi Tojikiston Respublikasi qonuni; 1998-yil 30-iyuldagi Tojikiston Respublikasi Konsullik Nizomi⁴³ va boshqalar.

Tojikiston tashqi siyosatini shakllantirishning ikkinchi bosqichi 2002 yilda rasman e'lon qilingan "ochiq eshiklar siyosati"da o'z aksini topdi. Tojikiston Respublikasining ushbu siyosati xalqaro munosabatlarning umumiy arxitekturasini qurishda mamlakat uchun muhim bo'lgan bir qator masalalarni hisobga olishga asoslangan edi.

Tojikiston tashqi siyosati shakllanishining uchinchi bosqichi xalqaro munosabatlarda bir qator yangi o'zgarishlar, dunyo miqyosda yangi tahdid va voqeliklarning paydo bo'lishi bilan bog'liq o'zgarishlar sodir bo'lgan 2013-2014-yillarga to'g'ri keladi. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida milliy manfaatlarni ta'minlash uchun yangi kontseptual huquqiy hujjat 2015-yil 27-yanvarda "Tojikiston Respublikasi Tashqi siyosati konsepsiyasi" qabul qilindi⁴⁴.

Mamlakatning geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, "Tojikiston Respublikasining tashqi siyosat konsepsiyasi"da Tojikiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari, shuningdek ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Ustuvor yo'nalishlar qatorida mintaqada geosiyosiy

⁴¹ Назриев Д., Саттаров И. Республика Таджикистан: история независимости. Год 1992-й. Душанбе, 2005. – С. 65.

⁴² Шарипов А.Н. Из истории таджикско-казахстанских взаимоотношений (1991-2006 гг.). Душанбе, ЭР-Граф, 2012. – С. 39.

⁴³ Sharipov A.FattoyevS. Emomali Rahmon – tinchlik va milliy totuvlik asoschisi (tojik tilida). – D. 2006. – B. 129.

⁴⁴ Qarang: Тоҷикистон Республикаси Ташқи сиёсати концепсияси. Тоҷикистон Республикаси Президентининг 2015 йил 27 январдаги 332-сонли Фармони билан тасдиқланган. Электрон ресурс. URL <http://mfa.tj/?l=tj&cat=109&art=1072>

ustunlikka ega davlat sifatida Markaziy Osiyo va xususan, O'zbekiston Respublikasi alohida o'rin tutadi⁴⁵.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, tomonlarning tashqi siyosay masalalar bo'yicha pozitsiyalari va qarashlarining o'xshashligi O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida teng huquqli davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va o'zaro manfaatli konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi.

Dissertatsiyaning *Diplomatik munosabatlar va davlatlararo hamkorlik asoslarining shakllanishi* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ikki mamlakatning o'zaro munosabatlari, mavjud muammolarni diplomatik yo'l bilan o'zaro kelishuv asosida hal etilishi, ijtimoiy-iqtisodiy holat, xalqlar o'rtasidagi munosabatlar tarixi berilgan. O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari asosida 1992-yil 22-oktabrda o'rnatilgan⁴⁶.

Biroq, mustaqil rivojlanish sharoitida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tarixini o'rganar ekanmiz, ular barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lmaganliklariga beixtiyor guvoh bo'lamiz. Albatta, buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Shu munosabat bilan, ham O'zbekistonning, ham Tojikistonning tarixiy va siyosiy fanlar bo'yicha tadqiqot olib boruvchi ko'plab olimlari davlatlararo munosabatlarning shakllanishi va ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi jarayonini tadqiq etib, uni shartli ravishda ikki alohida davrga ajratadilar⁴⁷.

Birinchisiga diplomatik munosabatlar o'rnatilgan vaqtdan 2016-yilgacha bo'lgan davrni kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchisiga esa, O'zbekiston-Tojikiston munosabatlaridagi tub o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan, mamlakatni isloh qilish bosqichida O'zbekiston rahbariyatining yaqinlashish va konstruktiv o'zaro hamkorlikka qaratilgan pragmatik tashqi siyosati bilan birga olib borilayotgan davr kiritiladi⁴⁸.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning birinchi bosqichida 1993-yil 4-yanvar kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim⁴⁹ muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston-Tojikiston davlatlararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishining dastlabki davridagi o'zaro hamkorlik jarayonini o'rganib, shartnomaviy-huquqiy bazaning yetarlicha mustahkam poydevori mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin. 1992-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda ikki

⁴⁵ Qarang: Тоҷикистон Республикаси Ташқи сиёсати концепцияси. 2. Тоҷикистон Республикаси халқаро муносабатлар тизимида. 2.9. Тоҷикистон Республикаси Президентининг 2015 йил 27 январдаги 332-сонли Фармони билан тасдиқланган. Электрон ресурс. URL <http://mfa.tj/?l=tj&cat=109&art=1072>

⁴⁶ Qarang: Дипломатия Таджикистана: вчера и сегодня. В двух томах. Том 1. (Под общей редакцией Хамрохона Зарифи) Серия: Внешняя политика Таджикистана. Душанбе: «Ирфон», 2009. – С. 77.

⁴⁷ Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. – Ташкент, «Innovatsiya-Ziyo», 2021. – 161-162.

⁴⁸ Qarang: osha asar. – 162.

⁴⁹ Qarang: osha asar. – 163

mamlakat o'rtasida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 110 dan ortiq bitim va shartnomalar imzolanishiga erishilgan.

Biroq, ikki tomonlama munosabatlarning ko'plab sohalari bo'yicha hamkorlik shartnomalarining yetarlicha mustahkam to'plami mavjudligiga qaramay, so'nggi o'n besh yil ichida o'zaro munosabatlarning rivojlanishidagi turg'unlik jarayoni kuzatildi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda yuzaga kelgan munozarali masalalar bo'lib, yuqori darajadagi davlatlararo muloqotning sovishiga olib keldi.

O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari rivojlanishining ikkinchi davri birinchisidan tubdan farq qiladi. Bu, birinchi navbatda, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib tayinlangani bilan bog'liq. U pragmatik siyosatchi va islohotchi sifatida mamlakat tashqi siyosatida o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga, birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor bera boshladi. Shu tariqa O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalar jadallik bilan mustahkamlana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilning 9-10-mart kunlari bo'lib o'tgan Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi davlatlararo munosabatlarda muloqotning yangi bosqichini qaytadan boshlab berdi⁵⁰.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning 2018-yil 17-18-avgust kunlari o'n yetti yillik tanaffusidan so'ng O'zbekistonga qilgan davlat tashrifi davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashning mantiqiy davomi bo'ldi⁵¹.

2021-yil 10-11-iyun kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga navbatdagi rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif doirasida ko'p qirrali hamkorlikning yangi o'sish nuqtalarini aniqlash va uzoq muddatli istiqbolda amaliy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichiga ko'tarildi.

2022-yil 2-3-iyun kunlari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga rasmiy tashrifi ham o'zaro munosabatlarning tiklanishi fonida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligida bo'lib o'tdi⁵². Davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlari O'zbekiston-Tojikiston davlatlararo munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'zbekiston va Tojikistonning iqtisodiyot, xavfsizlik va barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorligi”** deb nomlanib, mazkur bobda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim bo'lgan

⁵⁰ Ўзбекистон Президентининг Тожикистонга давлат ташрифига тўғрисида / Халқ сўзи. 2018 йил 7 октябрь.

⁵¹ Qarang: Ўзбекистон ва Тожикистон – стратегик ҳамкорлар / Халқ сўзи. 2018 йил 18 август.

⁵² Qarang: Ўзбекистон-Тожикистон: вақт синовидан ўтган, умумий мақсадларга эга ишончли стратегик шериклар. / Халқ сўзи. 2022 йил 3 июнь.

savdo iqtisodiy sohadagi o‘zaro hamkorlik, xavfsizlik barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlik masalalari o‘rganilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi “Ikki mamlakatning savdo va iqtisodiyot sohasidagi hamkorligi” deb nomlanadi. Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarini tahlil qilar ekanmiz, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning dastlabki bosqichida juda sekinlik bilan borganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu birinchi navbatda Tojikistondagi beqaror siyosiy vaziyat bilan bog‘liq edi.

O‘zbekiston va Tojikiston hukumatlari tomonidan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramay, mustaqillikning dastlabki bosqichida ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik hali ham sust edi. Bu boradagi faoliyatni normallashtirish borasida muhim qadam sifatida 1996-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati o‘rtasida erkin savdo to‘g‘risidagi bitim imzolangan “Erkin savdo to‘g‘risida” bitimni⁵³ aytib o‘tishimiz mumkin.

Biroq, ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarga qaramay, 90-yillarning ikkinchi yarmida ba‘zi munozarali masalalar yuzaga kela boshladi. Bularning barchasi davlatlararo munosabatlar va savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi nizolarni hal etish uchun maxsus O‘zbekiston-Tojikiston hukumatlararo komissiyasini tuzish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya tuzish to‘g‘risidagi qaror 2001-yil dekabr oyida Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmonning O‘zbekistonga amaliy tashrifi chog‘ida qabul qilingan edi. Ushbu komissiya majlislarida elektr energetikasi, suv xo‘jaligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, kommunikatsiya kabi sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari, shuningdek, ikki mamlakat ishbilarmon va sanoat doiralarini kengaytirish jarayoniga keng jalb etish masalalari muhokama qilindi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar ko‘rib chiqildi. Ammo ko‘rilgan choralarga qaramay, hatto yangi asrning boshida ham kelishmovchiliklar saqlanib qoldi. Bu qarama-qarshiliklar transport kommunikatsiyalari, havo qatnovlarini yo‘lga qo‘yish, Samarqand-Penjikent uchastkasida A-377 xalqaro avtomagistralining yopilishi fonida chegaralardagi 16 o‘tkazish punktidan 9 tasining yopilishi, shuningdek, Tojikistonda Rog‘un GES qurilishi loyihasini amalga oshirish kabilarda namoyon bo‘ldi va bularning barchasi birgalikda ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik holatini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston-Tojikiston hukumatlararo komissiyasi tomonidan

⁵³ Izoh:- mazkur bitim hozirgi kunda ham amalda bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Tojikiston Respublikasi hukumati o‘rtasida bayonnoma bilan 09.03.2018 da istisnolar tartibida o‘zgartirishlar kiritilgan. “O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati o‘rtasida erkin savdo to‘g‘risida 1996-yil 10-yanvardagi bitimga erkin savdo tartibidan istisnolar haqida” O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Tojikiston Respublikasi hukumati o‘rtasida bayonnoma. Dushanbe, 2018-yil 9-mart.// <https://lex.uz/uz/docs/3806887> Elektron manbaa.; Murojaat qilingan sana 20.01.2024.

muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, komissiyaning uchinchi yig'ilishida ikki davlatning o'zaro hamkorligidagi qator muammoli jihatlar ko'rib chiqilib, buning natijasida hamkorlik borasidagi ishlarda tom ma'nodagi "o'lik nuqtadan" oldinga siljishlar kuzatilganligini ta'kidlash mumkin. Agarda 2015-yilda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 167,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich keyingi 2016 yilda 196,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bunda har ikki misoldagi holatlarda ham O'zbekistonning tovar eksporti Tojikistondan import qilinganiga nisbatan ustun keldi⁵⁴.

Yangi O'zbekiston qurilishi boshlanishi bilan ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi vaziyat keskin o'zgara boshladi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonning yangi rahbariyatining pragmatik tashqi siyosat kursi o'zbek-tojik savdo-iqtisodiy hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanish jarayonini kuzatar ekanmiz, ular yuksalish yo'lida rivojlanib borayotganini ko'ramiz.

1-jadval

2014-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi tovar ayirboshlash dinamikasi (million AQSh dollari)⁵⁵

	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024 yanvar
Savdo aylanmasi	160,2	167,3	196,8	237,9	390,5	497,0	493,1	605,5	676,6	756,8	101,1
Eksport	153,4	160,3	164,7	186,1	237,5	344,2	405,1	501,9	522,1	605,0	53,2
Import	6,8	7,0	32,1	51,8	153,0	152,8	88,0	103,6	154,5	151,8	47,9
Sal'do	146,6	153,3	133,4	134,3	84,5	191,4	317,1	398,3	367,6	453,2	5,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda davlatlararo munosabatlarga tubdan yangicha yondashuv O'zbekiston-Tojikiston savdo-iqtisodiy hamkorligi holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Muntazam ravishda o'zaro savdo hajmining dinamik o'sishi kuzatilmoqda.

2018-yilga kelib O'zbekistonda Tojikiston kapitali ishtirokidagi 39 ta korxonalar, Tojikiston hududida o'zbekistonlik investorlar tomonidan tashkil etilgan 8 ta korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa⁵⁶, 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston va Tojikistonda tashkil etilgan o'zbek-tojik qo'shma korxonalarining umumiy soni o'n baravar ko'payib, 200 taga yetdi⁵⁷. 2024-yil yanvar holatiga

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. Strategiya bozori dar Jumhurii Tojikiston. Savdo-iqtisodiy aloqalar. Tojikistondan import tahlili. Eksportni oshirish bo'yicha takliflar. – Toshkent. 2020. – B. 2.

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги. Тожикистон Республикаси бозорига кириш стратегияси. Савдо-иқтисодий алоқалар. Тожикистон импортини таҳлил қилиш. Экспортни кўпайтириш бўйича таклифлар. – Тошкент. 2020. – Б. 2.; Ўзбекистон Республикаси статистика қўмитаси расмий веб сайти <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>

⁵⁶ Qarang: Ўзбекистон – Тожикистон – стратегик ҳамкорлар / Халқ сўзи. 2018 йил 18 август.

⁵⁷ Qarang: Ўзбекистон – Тожикистон: ишончга асосланган мустаҳкам алоқалар / Халқ сўзи. 2022 йил 1 июнь.

statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra xorijiy mamlakatlar kapitali asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 14053 ta bo'lib, 4657 tasi qo'shma korxonalar va 9396 tasi xorijiy korxonalar hisoblanadi. Shulardan 278 tasi Tojikiston kapitali ishtirokida tashkil etilgan⁵⁸.

Ikkinchi paragraf "Ikki mamlakat o'rtasida xavfsizlik va barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlik masalalari" deb nomlanadi. Ushbu paragrofda ikki davlatning tashqi siyosat va xalqaro huquq tamoyillariga rioya qilgan holda xavfsizlik va barqaror rivojlanish sohasidagi o'zaro hamkorligi masalalari ko'rib chiqiladi. Mintaqaviy muammolarga nisbatan tashqi siyosat tamoyillariga sodiq qolgan holda, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab o'z harakatlarini Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan muvofiqlashtirib kelmoqda.

O'zbekiston va Tojikiston BMT, YXHT, MDH va ShHT kabi xalqaro tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'lib, real tahdidlarning oldini olish bo'yicha o'z harakatlarini muvofiqlashtirib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun bunday tahdidlar, shubhasiz, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va separatizm bo'lib, ko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi.

Mavjud tahdidlarni bartaraf etishda Tojikiston rahbariyati O'zbekiston tomonidan BMT, YXHT va ShHT doirasida ilgari surilgan tashabbuslarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, O'zbekiston rahbariyatining BMT Bosh Assambleyasining 48 (1993), 50 (1995) sessiyalarida, shuningdek, YXHT va ShHTning barcha sammitlaridagi, Mingyillik sammitida so'zlagan nutqlariga jahon jamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Mazkur chiqishlarda Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq zamonamizning murakkab va munozarali muammolarini hal qilishga oid aniq amaliy takliflar ilgari surildi. Xususan, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli hudud deb e'lon qilish; tashqi aralashuvni taqiqlagan holda mahalliy mojaroli hududlarga qurol-yarog' yetkazib berishga embargo joriy etish; "Terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazi"ni yaratish va boshqalar. Bundan tashqari, O'zbekiston rahbariyati tashabbusi bilan Toshkentda BMT va YXHT shafeligida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha yig'ilish-seminar (1995-yil sentabr); Afg'oniston bo'yicha 6+2 guruh yig'ilishi (1999-yil iyul); "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda integratsiyalashgan yondashuv" mavzusidagi xalqaro konferensiya (2000-yil oktabr) va boshqalar bo'lib o'tdi.

Yangilanish va yangi O'zbekiston qurilishi sharoitida ham mamlakat va butun Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Mintaqadagi real vaziyatni hisobga olgan holda O'zbekiston va Tojikiston rahbariyati mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasida ilgari surilgan tashabbuslarni muntazam muvofiqlashtirib va o'zaro qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlarida xavfsizlik masalalari asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Ikki davlat

⁵⁸ Qarang: Давлат статистика агентлиги маълумоти. https://uz.tgstat.com/channel/@statistika_rasmiy

rahbarlarining uchrashuvlarida O‘zbekiston va Tojikiston Afg‘oniston bo‘yicha tinchlik muzokaralari jarayoniga ko‘maklashish tarafdori ekani, shuningdek, ushbu mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyiha va dasturlarni birgalikda amalga oshirishga tayyor ekani alohida ta’kidlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr⁵⁹ kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash, Afg‘oniston inqirozini bartaraf etish masalalari ko‘tarildi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, zamonaviy xalqaro munosabatlarda mamlakatlar va umuman mintaqalarning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish alohida e’tiborni talab qiladi. Bu, ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dolzarb masalaga aylandi. Bu insoniyatning sivilizatsiya rivojlanishini yangi modelini shakllantirish zarurligini anglab yetganligi bilan bog‘liq. Dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar natijasi o‘laroq, o‘tgan asrning 80-yillari oxirida BMTning xalqaro komissiyasi tashabbusi bilan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi paydo bo‘ldi.

Barqaror rivojlanishning asosiy qoidalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari ham o‘zlarining barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdilar. 1998-yil 14-dekabr⁶⁰ da O‘zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilindi, xuddi shunday 2007-yil 1-oktabr⁶¹ da Tojikiston Respublikasida ham Barqaror rivojlanish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy, ta’lim, ma’naviy-axloqiy va boshqa sohalarda barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlariga erishish bo‘yicha vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston va Tojikiston BMTning yangi ming yillik uchun yangi tashabbuslarini bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi. Xususan, bular 2000-yilda BMTning Mingyillik sammitida qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlari(MRM)⁶², 2016 yilda BMT tashabbusi bilan taklif etilgan yangi ulkan loyiha – 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun Barqaror rivojlanish maqsadlari⁶³ shular jumlasidandir.

O‘zbekiston va Tojikiston rahbariyati BMT tomonidan ilgari surilgan kontseptual loyihalardan kelib chiqib, nafaqat mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, balki davlatlararo munosabatlarda yuzaga kelgan bir qator munozarali masalalarni hal etish uchun barcha sa‘yi harakatlarni amalga oshira boshladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ikki davlatning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligi davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashning muhim omili sifatida”** deb nomlanadi. Mazkur bobda O‘zbekiston va Tojikiston xalqlarining madaniyat, ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorligi tahlil etilgan

⁵⁹ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёева на 72-й сессии Генеральной ассамблеи Организации Объединенных Наций (город Нью-Йорк, 19 сентября 2017 года) / Народное слово. 20 сентября 2017 года.

⁶⁰ <https://pandia.ru/text/79/053/83469.php>

⁶¹ http://cawater-info.net/library/rus/conc_sd_tj.pdf

⁶² Цели развития тысячелетия / <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

⁶³ Цели устойчивого развития / <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

bo‘lib, bu ularning tarixiy ildizlari mushtarakligi, ko‘p asrlik madaniy va ma‘naviyat, an‘ana va urf-odatlarning birligi bilan asoslanadi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “O‘zbekiston va Tojikiston xalqlarining madaniyat sohasidagi hamkorligi” deb nomlanadi. Ta‘kidlash joizki, madaniy va ma‘naviy sohadagi hamkorlik davlatlararo munosabatlar va xalqlar, xususan, O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ularning madaniy va ma‘naviy o‘zaro boyishiga ko‘maklashish, bunyodkorlik uchun sharoit yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Biroq, Tojikiston mustaqilligining dastlabki bosqichida yuzaga kelgan beqaror siyosiy vaziyat tufayli madaniyat sohasidagi hamkorlikning rivojlanishi sust bo‘ldi.

O‘zbek-tojik munosabatlarida tub burilish yangi O‘zbekiston qurilishi boshlanishi bilan yuz berdi. Unda ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik masalalari ham ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikistonga tashrifi chog‘ida “Dini, an‘ana va qadriyatlari mushtarak bo‘lgan o‘zbek va tojik xalqlari asrlar davomida qo‘shni, do‘st va hamkor bo‘lib kelganini alohida ta‘kidladi. Shubhasiz, bizning burchimiz ana shu bebaho boylikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashdir” deb ta‘kidladilar⁶⁴

O‘zbekistonda ham, Tojikistonda ham madaniyat kunlari tarzida muntazam o‘tkazib kelinayotgan yirik tadbirlar ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlikning amalga oshirilishining yorqin namunasi bo‘ldi. Xususan, 2017-yilning may oyida Tojikistonda yigirma yillik tanaffusdan so‘ng ilk bor “O‘zbekiston madaniyati kunlari” bo‘lib o‘tdi⁶⁵. Ulug‘vor madaniy tadbirlarni o‘tkazish maqsadida boshlangan marafonning mantiqiy davomi 2017-yil oktabr oyida O‘zbekistonda o‘tkazilgan “Tojikiston madaniyati kunlari” bo‘ldi⁶⁶. Ikki mamlakat xalqlarining o‘zaro hamkorligi xalqlar madaniy va ma‘naviy hayotining har bir yo‘nalishida keng rivoj topdi. Ular musiqa va teatr san‘ati, kinematografiya, tasviriy san‘at va boshqa sohalarda muntazam ravishda paydo bo‘la boshladi.

Bundan tashqari, jahon miqyosida ro‘y berayotgan ko‘p madaniyatli jarayonlarning umumiy fonida O‘zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi haqli ravishda bir davlat doirasidagi xalqlarning o‘zaro hamjihatligining va ularning madaniy va ma‘naviy qadriyatlar xilma-xilligining yangi formati shakllanishida yorqin namoyon bo‘ldi. 2008-yilda tashkil etilgan va O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tojik milliy madaniy markazlari buning yorqin dalilidir⁶⁷. Jamoatchilik tashabbusi va O‘zbekiston hukumati ko‘magida “xalq diplomatiyasi” asosida hamkorlikni mustahkamlash doirasida davlatlararo o‘zbek-tojik munosabatlarini mustahkamlash uchun Tojikiston hukumati

⁶⁴ Наши народы довольны атмосферой добрососедства и вечной дружбы / Народное слово. 12 июня 2021 года.

⁶⁵ Uzoq vaqtdan beri ilk bor Toshkentda Tojikiston madaniyati kunlari ochildi / <https://podrobno.uz/cat/calche/v-tashkente-vpervye-za-dolgee-vremya-otkrylis-dni-kultury-tojikiston/>

⁶⁶ Toshkentda tojik madaniyati kunlari boshlandi / <https://darakchi.uz/ru/35436>

⁶⁷ Joriy arxiv O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi. Milliy madaniy markazlar faoliyatiga oid hisobotlar papkasi. – 65-68-betlar.

tomonidan 2019-yilda “O‘zbekiston-Tojikiston” do‘stlik jamiyati Farg‘ona viloyati Rishton tumanida tashkil etildi.

Tojikistonda o‘zbeklar istiqomat qilishini hisobga olsak, mamlakatda o‘zbek jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda. Xususan, Tojikistonning So‘g‘d viloyatida O‘zbek ma‘naviyati va ma‘rifati viloyat markazi va viloyat o‘zbek jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, qo‘shni respublika hududida o‘zbek tilida 10 ga yaqin bosma nashrlar, jumladan, gazeta va jurnallar chop etilib, bitta xususiy telekanal efirga uzatiladi⁶⁸.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “Ikki davlatning ta‘lim va ilm-fan sohasidagi hamkorligi” deb nomlanib, unda mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi o‘zaro hamkorligining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu munosabat bilan O‘zbekistonda xalqaro amaliyot va amaldagi davlatlararo shartnoma va shartnomalardan kelib chiqib, ikki qo‘shni davlat xalqlarini yanada yaqinlashtirish maqsadida tojik millati vakillarining qulay yashashi uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Ushbu siyosat tufayli O‘zbekistondagi tojik diasporasi vakillari va ularning farzandlari nafaqat uyda, balki ta‘lim muassasalarida ham o‘z ona tilida gaplashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tojik tilida olib boriladigan umumta‘lim maktablarida esa barcha fanlar ona tilida o‘qitiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyatida ta‘lim tojik tilida olib boriladigan 19 ta umumta‘lim maktabi mavjud. Farg‘ona viloyatining So‘x tumanida ta‘lim tojik tilida olib boriladigan 24 ta maktab, 2 ta litsey va 2 ta kollej mavjud. Ularning o‘z ona tilida ta‘lim olishi uchun barcha sharoit yaratilganini alohida ta‘kidlash lozim. Bunday ta‘lim muassasalari Samarqand, Buxoro, Namangan va O‘zbekistonning boshqa viloyatlarida ham mavjud.

Xuddi shunday ishlar Tojikiston Respublikasida ham olib borilmoqda. Buni O‘zbekistonda bo‘lgani kabi, bu mamlakatda ham asosiy etnik guruhni o‘zbeklar tashkil etishi bilan tushuntirish mumkin. Ammo Tojikistondagi ko‘plab o‘zbeklar kompakt holda asosan Tojikiston va O‘zbekiston chegarasida yashaydilar. Tojikiston Respublikasi Ta‘lim va ilm-fan vazirligining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda 77 ta o‘zbek tilli maktablar, shuningdek, o‘zbek sinflari ham tashkil qilingan 440 ta aralash tipdagi maktablar mavjud. Birgina Tursunzoda tumanining o‘zida 7148 nafar bola to‘liq o‘zbek tilida o‘qitiladi⁶⁹.

Ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va hamkorlik oliy ta‘lim sohasida ham yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, 2018-yilning mart oyida ikki davlat hukumatlari o‘rtasida Oliy ta‘lim va fan sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim imzolangan edi⁷⁰. Shunga muvofiq, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining 5 ta oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim tojik tilida olib borilmoqda. Maktab, litsey va oliy o‘quv yurtlari uchun kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, Samarqand davlat

⁶⁸ O‘zbekiston va Tojikiston: madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish / <https://isrs.uz/ru/maqolalar/razvitie-kulturno-gumanitarnyh-svazey-vaznyj-faktor-ukreplenia-otnosenij-mezdu-uzbekistanom-i-tadzikistanom>

⁶⁹ Qarang: 77 школ на всю страну. Как учатся в Таджикистане на узбекском языке? / <https://asiaplustj.info/news/tajikistan/society/20180613/77-shkol-na-vsuyu-stranu-kak-uchatsya-v-tadzhikistane-na-uzbekskom-yazike>

⁷⁰ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida oliy ta‘lim va fan sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim / <https://buxgalter.uz/uz/>

universitetida tojik tili va adabiyoti, Termiz davlat universitetida tojik filologiyasi va sharq tillari kafedralari mavjud⁷¹.

Shuningdek, bugungi kunga qadar ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 60 dan ortiq hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va memorandumlar bilan mustahkamlangan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar yo'lga qo'yilgan. Ayni paytda O'zbekistondagi 30 ta oliy o'quv yurti Tojikistonning 15 dan ortiq oliy o'quv yurtlari va ilmiy-ta'lim tashkilotlari bilan aloqada. Jumladan, Samarqand davlat universiteti akademik M.Osimiy nomidagi Tojikiston texnika universiteti, Buxoro va Samarqand davlat tibbiyot institutlari bilan Tojikiston va Xatlon davlat tibbiyot institutlari, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Tojikiston agrar universiteti bilan ta'lim va fan sohasida erishilgan kelishuvlar asosida o'zaro foydali hamkorlikni amalga oshirmoqda.⁷²

O'zbekiston-Tojikiston davlatlararo munosabatlarini mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishi bu ilm-fan sohasidagi hamkorlikdir. Bu yo'nalishda O'zbekiston va Tojikiston Fanlar akademiyasi qoshida faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqot institutlari asosiy rol o'ynaydi. Ular o'rtasida joriy ilmiy loyihalarni ishlab chiqish bo'yicha o'zaro hamkorlik bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi. Masalan, 2000-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Astronomiya instituti va Tojikiston Fanlar Akademiyasi Astrofizika instituti o'rtasida astronomiya va kadrlar tayyorlash sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida Bitim tuzilgan. Tojikiston Fanlar akademiyasi V.I. Nikitin nomidagi Kimyo instituti bilan A.S. Sodiqov nomidagi Biorganik kimyo instituti o'rtasida qon toksinlari va dori vositalarining farmakokinetikasini tahlil qilish sohasida⁷³ va boshqa sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki mamlakat Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlari va olimlari o'rtasidagi an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan ilmiy aloqalar keyingi yillarda yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Shu bilan birga, davlatlararo munosabatlarning madaniy-gumanitar sohasi doirasida ilmiy soha xalq diplomatiyasi rolini bajarib, ikki qardosh mamlakat xalqlari o'rtasida gorizontalar darajada yaqin munosabatlar o'rnatilishiga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Dissertatsiya ishi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ulkan postsovet maydonida yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi xalqaro munosabatlarning yangi tizimini shakllanishiga hissa qo'shdi. Bu jarayonlarga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'llari va siyosiy yo'nalishlarini belgilashda tarixiy, madaniy va ma'naviy birligi uzviy va ajralmas bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari ham amaliy jihatdan qo'shildi. Bundan tashqari, sobiq SSSR iqtisodiyotini boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros

⁷¹ O'zbekiston va Tojikiston universitetlari hamkorlik qiladi / <https://uza.uz/ru/posts/vuzy-uzbekistana>

⁷² O'zbekiston va Tojikiston: madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirish / <https://isrs.uz/ru/>

⁷³ Farhod Rahimiy: "Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tojikiston va O'zbekiston olimlari o'rtasidagi an'anaviy ilmiy aloqalarni yuksak qadrlaydi va qo'llab-quvvatlaydi" / <https://khover.tj/rus>

bo'lib qolgan iqtisodiy muammolar ushbu mintaqa mamlakatlari uchun umumiy bo'lib qoldi. Shu faktlarning o'zi mintaqa davlatlarini yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni birgalikda engish va o'zaro yaqinlashish zarurligiga undadi.

2. O'zbekiston va Tojikiston mustaqil davlatlar sifatida xalqaro munosabatlarning umumiy jarayoniga moslashish uchun BMT va YXHT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy qoida va tamoyillarga asoslanib, o'z strategiyasini, tamoyillarini ishlab chiqishga, tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga muvaffaq bo'ldi. Bu ularning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishiga, ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama davlatlararo munosabatlar va hamkorlikni amalga oshirishga asos bo'ldi.

3. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Mintaqada geosiyosiy mavqega ega bo'lgan O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordir. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Markaziy Osiyodagi har bir davlatning geografik joylashuvini, mintaqaviy miqyosda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda diplomatik aloqalarni o'rnatish va ko'p tomonlama hamkorlik uchun hamkorlikning huquqiy asoslarni shakllantirishga kirishdi. Bunday jarayon O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasidagi munosabatlarda ham sodir bo'ldi. Ayniqsa, Tojikiston hududidagi siyosiy vaziyatni tartibga solish sohasida, O'zbekiston-Tojikiston davlatlararo munosabatlarida o'zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy asoslarini rasmiylashtirish jarayoni boshlandi. O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida Do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma (1993-y.), Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma (2000-y.), O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma (2018-y.) ikki tomonlama davlatlararo munosabatlar va hamkorlikni amalga oshirishning mustahkam asosi bo'ldi.

4. Mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari mavjudligi, birinchi navbatda, iqtisodiy sohada o'zaro manfaatli aloqalarni bosqichma bosqich amalga oshirish imkonini berdi. Biroq, bu jarayon rivojlanishining dastlabki bosqichida barqarorlik kasb etmadi. Ikki davlat rahbariyatining transport-kommunikatsiya, chegara, suv-energetika va boshqa qator sohalardagi qarashlarida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar savdo-iqtisodiy munosabatlar holatiga keskin ta'sir ko'rsatgan ma'lum stagnatsiyaga olib keldi. Faqat yangilanish siyosati hamda yangi O'zbekiston qurilishi boshlanishi bilan vaziyat tubdan ijobiy tomonga o'zgarib boshladi. Ikki davlat o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Buning natijasida tovar ayirboshlash hajmi keskin oshib, qo'shma korxonalar tashkil etilib, investitsiya siyosati faollashayotganligi kuzatilmoqda.

5. Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda ham alohida davlatlar, ham butun Markaziy Osiyoning xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash ana shunday dolzarb masaladir. Bu muammo, ayniqsa, janubda

Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgan O‘zbekiston va Tojikiston uchun yanada dolzarbdir. Ikki davlat tashqi siyosiy faoliyatidagi ana shunday vaziyatdan kelib chiqib, BMT, YXHT, MDH, ShHT kabi xalqaro tashkilotlar doirasida ko‘tarilgan masalalarni o‘zaro ma‘qullagan O‘zbekiston va Tojikistonda mintaqadagi mavjud vaziyatga bir xil yondashuv kuzatilmoqda.

O‘zbekiston va Tojikiston pozitsiyalarining o‘xshashligi mamlakat va butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishini ta‘minlash masalalarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun O‘zbekiston va Tojikiston o‘zining barqaror rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqqanlar. Mazkur hujjatlar BMTga a‘zo barcha mamlakatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilingan Mingyillik rivojlanish maqsadlari (2000-2015-yy)ga va BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlari (2016-2030-yy.) ning asosiy qoidalariga to‘liq mos keladi.

6. Davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda, hamkorlikni rivojlantirishda xalq diplomatiyasi muhim o‘rin tutadi. U insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, hamkorlik qiluvchi mamlakatlar xalqining keng qatlamlari o‘rtasidagi madaniy-ma‘naviy aloqalarning ko‘p qirrali shakllarida mujassamlashgan. Bundan tashqari, u ta‘lim va ilm-fan sohasida yaqin aloqalarni o‘rnatish orqali amalga oshiriladi, bu esa yutuqlar almashinuvi va kelgusidagi aloqalarni kengaytirish uchun qulay muhit yaratadi. Madaniy-gumanitar sohadagi ko‘p qirrali munosabatlarning o‘zbek-tojik davlatlararo munosabatlarini amalga oshirishda O‘zbekistonda tashkil etilgan Tojik milliy madaniyat markazi, shuningdek, “O‘zbekiston-Tojikiston” do‘stlik jamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tojikistonda ham xuddi shunday tuzilmalar tashkil etilgan bo‘lib, ular o‘z faoliyati bilan insonparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari asosida ikki mamlakat xalqlarining keng ko‘lamli madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro hamkorligining kuchayishi va yaqinlashishiga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammoning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida mamlakat tashqi siyosatining strategik yo‘nalishlarini amalga oshirishda yuksak natijalarga erisha oldi. O‘zbekiston Tojikiston Respublikasi bilan davlatlararo munosabatlar va ko‘p qirrali hamkorlikni amalga oshirib, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida o‘zining mustaqil ishtirokini isbotlay oldi.

Ammo, olib borilgan tadqiqot asosida, shuningdek, Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarni takomillashtirish va hamkorlikni kengaytirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi takliflar va fikrlarga ilgari surgan bo‘lar edik:

1. Mamlakatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun O‘zbekiston va Tojikiston tashqi ishlar vazirliklari quyidagi takliflarga e‘tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Afg‘oniston bilan chegaraga yaqin janubiy hududlarda xavfsizlik masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi guruh tashkil etish;

- qo'shni davlatdagi o'zbek millati vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayoti sharoitlarini muhokama qilish uchun diplomatik korpus vakillarining uchrashuvlarini tashkil etish;

- madaniyat, ta'lim va ilm-fan sohasi vakillari yutuqlarini o'zaro manfaatli almashishinuvini amalga oshirishning soddalashtirilgan huquqiy asoslarini yaratish.

2. Davlatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik holatini yanada yuqori bosqichga ko'ratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, shuningdek, mamlakatning tarmoq vazirlik va idoralari tomonidan liberalizatsiya sharoitida davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan kengroq foydalanish. Shu bilan birga, mamlakat eksport imkoniyatlarini doimiy ravishda kengaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yangi qo'shma korxonalar tashkil etish, O'zbekistonda ham, Tojikistonda ham yengil va og'ir sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, eksportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash zarurligini hisobga olish lozim.

3. Ikki davlat o'rtasida transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanishning mintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish lozim.

4. Birodar mamlakatlar xalqlarining ma'naviy, madaniy yutuqlarini yanada boyitish uchun davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekiston Madaniyat va turizm vazirligi ham quyidagi takliflarga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Tojikiston musiqa va teatr san'ati vakillari uchun O'zbekistonda gastrollarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- ikki mamlakatning qadimiy tarixiy va diqqatga sazovor joylariga sayyohlik marshrutlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Tojikistonda yashovchi o'zbek millati vakillarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'zbek umumta'lim maktablarining to'laqonli faoliyat olib borishini rag'batlantirish maqsadida ularni zarur darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc/03/31/01/2024/Tar.21.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

УСМОНОВ БАХТИЁР БОТИРОВИЧ

**МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВО
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКИ ТАДЖИКИСТАН**

07.00.05 – История международных отношений и внешней политики

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации по соисканию доктора философии (PhD) по историческим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за № В2022.2.PhD/Tar1147.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.fati.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Нуриддинов Эркин Зухриддинович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Рахимов Мирзохид Акрамович
доктор исторических наук, профессор

Буранов Сухроб Махаммади угли
PhD по политические науки, доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится «25» 01 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/31/01/2024/Tar.21.03 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения по адресу 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзкая, 16. Тел.: (99871)233-45-21; факс: (99871)233-52-24; e-mail: info@tsuos.

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № _____). 100060, город Ташкент, улица Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21).

Автореферат диссертации розослан «15» 01 2025 года.

(Регистр протокола рассылки № « » _____ 2025 года.)



М.М. Исаков
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор.

Н.Р. Каримов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент

С.Б. Шадманова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования.

Глобализационные процессы, происходящие в мире, порождают необходимость сближения стран и народов. В самом деле, в международных конвенциях и документах подчеркивается важность укрепления взаимных связей между государствами и народами, вывода интеграционных процессов на новый этап, что является одной из актуальных задач. С этой точки зрения, во внешней политике особое внимание уделяется укреплению и развитию взаимовыгодных и равноправных межгосударственных отношений, построению межгосударственных связей на основе равноправия и развитию многовекторного сотрудничества. Проводимые исследования подчеркивают необходимость изучения этих исторических опытов и их практического анализа.

В современную эпоху геополитическое значение Центральноазиатского региона в современном мире и вопросы, играющие важную роль в укреплении межгосударственных отношений между странами региона, стали объектом исследований многих научных аналитических центров мира. Основное внимание многих стратегических и региональных исследовательских центров направлено на изучение участия стран региона в процессах формирования современной системы международных отношений. Интерес к межгосударственным отношениям между Узбекистаном и Таджикистаном возрастает в рамках ряда проектов, связанных с межгосударственными отношениями и сотрудничеством: решение пограничных вопросов; управление водными ресурсами в Центральной Азии; программы экономического сотрудничества, культурного и научного обмена; сотрудничество в области мира и безопасности; развитие энергетики и инфраструктуры. Задача обогащения этих исследований местными научными результатами и дальнейшего уточнения информации по рассматриваемым вопросам считается актуальной как с теоретической, так и с практической точки зрения.

В связи с высокой необходимостью изучения роли и значения независимых государств Центральной Азии в международных отношениях, вопросы межгосударственных отношений и сотрудничества между Республикой Узбекистан и Республикой Таджикистан, укрепление взаимовыгодных связей и их глубокий научный анализ становятся одной из актуальных исследовательских тем с точки зрения мировой политики и региональной безопасности. В рамках принципа – «Судьба Узбекистана – это судьба Таджикистана. Будущее таджикского народа – это будущее узбекского народа»¹ – глубокое изучение межгосударственных отношений и развитие сотрудничества, а также исследование взаимодействия двух государств с

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2018. – B.345.

точки зрения исторической перспективы является одной из актуальных задач современной исторической науки.

Указ Президента Республики Узбекистан №УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года, Указ Президента Республики Узбекистан №УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года, Указ Президента Республики Узбекистан №УП-158 “О Стратегии “Узбекистан-2030” от 11 сентября 2023 года, Указ Президента Республики Узбекистан №УП-133 “О мерах по эффективной организации деятельности Министерства Иностранных дел в рамках административной реформы” от 30 августа 2024 года², а также другие нормативно-правовые документы по данной сфере в определенной степени служат выполнению задач указанных в данной диссертационной работе.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации»

Степень изученности проблемы. Исходя из имеющихся исследовательских работ по изучаемой теме как в отечественной, так и в зарубежной историографии, целесообразно разделить их на следующие группы: 1) фундаментальные труды и диссертации узбекских ученых; 2) труды и научные исследования зарубежных авторов.

В первую группу входят монографические работы и научные статьи, опубликованные в Узбекистане в первые годы независимости, об основах внешнеполитической деятельности нашей страны, ее месте на международной арене и налаживании межгосударственных отношений с иностранными государствами, процессах развития многосторонних форм сотрудничества проводили свои исследования такие ученые как, А. Касымов, Л. Петров, И.Васькин, Р. Хакимовы³. Также Р.Алимов, Р.Фарманов, М.Фарид Мухаметшин, К. Джураев, Ф.Толипов, Н.Касимова, С. Джураев, Б. Гиёсовы⁴ в своих исследованиях раскрыли правовые основы нашей государственности

² <https://lex.uz/docs/-3107036>, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>, <https://lex.uz/docs/-3611072>

³ См: Касымов А., Петров Л. Внешняя политика Узбекистана в свете концепции ненасилия. – Ташкент., 1992; Касымов А., Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 1994. – 112 с.; Норов В. Приоритетные направления внешней политики Республики Узбекистан // Социальные науки в Узбекистане, 1996, №11-12. - Стр. 3-9; Хакимов Р. Международно-правовые вопросы признания и правоприменения Республики Узбекистан - Ташкент: 1996. – 26 с; тот же автор. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. 3-е изд., доп. – Ташкент: Zar Qalam, 2006. – 320 с.

